

PSIXODIAGNOSTIK METOD TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Kamola Mahmudova

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası PhD., v.b., dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada psixodiagnostik metodlarning nazariy asoslari, ularning klassifikatsiyasi hamda qo‘llanish sohalari yoritib beriladi. Shuningdek, psixodiagnostik metodlarni tanlash va qo‘llash jarayonida ilmiylik, ishonchlilik, validlik va obyektivlik tamoyillariga rioya etish zarurligi asoslab beriladi. Psixodiagnostik metodlar orqali olingan natijalarning psixologik maslahat, ta‘lim-tarbiya jarayoni, kasbiy tanlov va klinik amaliyotda qo‘llanilishi masalalari alohida e‘tibor bilan ko‘rib chiqiladi. Mazkur maqolada psixodiagnostik metod tushunchasi, uning mohiyati hamda psixologiya fanidagi o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Psixodiagnostik metodlar shaxsning psixik jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlari va xulq-atvorini aniqlash, baholash hamda tahlil qilishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan usullar majmuasini tashkil etadi.*

Kalit so‘zlar: *psixodiagnostik metod, psixodiagnostika, psixologik baholash, metod tushunchasi, individual-psixologik xususiyatlar, psixik jarayonlar, ishonchlilik, validlik, obyektivlik, amaliy psixologiya.*

Psixodiagnostik metod — bu shaxsning psixik xususiyatlari, holatlari va individual farqlarini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan usullar majmuidir. Psixodiagnostik metodlar yordamida shaxsning bilish jarayonlari, hissiy holati, motivatsion sohalari, xulq-atvori hamda ichki kechinmalari tizimli ravishda o‘rganiladi.

Psixodiagnostik metodlar mohiyatan murakkab bo‘lib, ular shaxs tomonidan har doim ham anglab yetilmaydigan yoki ongli ravishda yashiriladigan xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu sababli psixodiagnostika jarayonida nafaqat ilmiylik, balki kasbiy-etika tamoyillariga qat’iy rioya qilish muhim hisoblanadi.

Ayrim test va metodikalar shaxsning hissiy va motivatsion sohasini, barqaror holatlari hamda ichki ustanovkalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Natijada tekshiriluvchi shaxs o‘zi xohlamagan yoki anglamagan psixologik xususiyatlar aniqlanishi mumkin. Bunday vaziyatda shaxsning ma‘naviy va ruhiy zarar ko‘rishiga yo‘l qo‘ymaslik psixologning muhim vazifasidir.

Shu bois tekshiriluvchi shaxs test sinovidan o‘tkazilishidan oldin: tekshiruvning maqsadi; natijalar kimlar tomonidan va qanday maqsadda foydalanilishi; ma‘lumotlarning maxfiyligi haqida oldindan ogohlantirilishi lozim. Agar tekshiriluvchi balog‘atga yetmagan bo‘lsa, test

natijalari bilan uning ota-onasi tanishtirilishi shart. Ushbu talablar psixodiagnostik metodlarning etik mohiyatini belgilaydi va shaxs huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Psixodiagnostik metodlarni qo‘llashdagi asosiy etik tamoyillar

1. Haqqoniylik tamoyili

Ushbu tamoyilga ko‘ra, psixolog tekshiruv jarayonida sinaluvchiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat bildirmasligi, simpatiya yoki antipatiyaga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Psixolog test jarayonida: savollarga javobni aytib yubormasligi; sinaluvchini yo‘naltirmasligi; faqat yo‘riqnomani tushuntirish bilan cheklanishi zarur. Bu test natijalarining haqqoniyligini ta‘minlaydi.

2. Konfidensiallik tamoyili

Psixodiagnostik tekshiruv natijalari sir saqlanishi lozim. Ushbu ma‘lumotlardan faqat tegishli shaxslar — psixolog, pedagog, ota-onalar (zarur hollarda) foydalanishi mumkin. Tekshiriluvchining roziligisiz natijalarni uchinchi shaxslarga oshkor qilish qat‘iyan man etiladi.

Agar o‘quvchi past natija ko‘rsatgan bo‘lsa, psixolog bu holatni darhol ota-onaga yetkazmasdan, avvalo natijaning sabablari va uning aybi yo‘qligini tushuntirishi zarur. Eng muhimi, test natijalari sababli o‘quvchining jazolanishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

3. Natijalarni psixoprofilaktik talqin qilish

Psixodiagnostik metodlar natijalari shaxs ruhiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi kerak. Agar ma‘lumotlarning oshkor etilishi tekshiriluvchining psixologik holatini yomonlashtirishi mumkin bo‘lsa, psixolog ularni taqdim etmaslik huquqiga ega. Zarur hollarda tekshiriluvchi natijalar yuzasidan o‘z fikrini bildirishi va aniqlashtirish kiritishi mumkin.

Psixodiagnostik metodlarning klassifikatsiyasi

Hozirgi kunda psixodiagnostik metodlarni tasniflashning bir necha ilmiy asoslangan yondashuvlari mavjud.

1. Javobning to‘g‘riligi asosida klassifikatsiya

a) To‘g‘ri javobga ega metodlar. Bu guruhga: intellekt testlari; maxsus qobiliyatlar testlari; ayrim shaxsiy xususiyatlarni aniqlovchi testlar kiradi (masalan, Raven testi, Uitkinning yarim mustaqillik testi, Luchins rigidlik testi).

b) To‘g‘ri javobi mavjud bo‘lmagan metodlar. Bu metodikalarda javoblarning chastotasi va yo‘nalishi muhim hisoblanadi.

2. Verbal va noverbal metodlar

Verbal metodlar — sinaluvchining nutqiy faolligiga asoslanadi va xotira, tafakkur, tasavvur, e‘tiqodlar tizimini tilda ifodalash orqali o‘rganadi.

Noverbal metodlar — sinaluvchining nutqiy qobiliyatidan faqat yo‘riqnomani tushunish uchun foydalanadi, topshiriqlar esa perceptiv va motor faoliyatga tayanadi.

3. Asosiy metodik tamoyilga ko‘ra klassifikatsiya

1) Obyektiv testlar. Topshiriqni to‘g‘ri bajarish imkoniga ega bo‘lgan metodikalardir.

2) Standartlashgan o‘zi haqida hisobot metodikalari: test-so‘rovnomalar; ochiq so‘rovnomalar; shkalaviy texnikalar (semantik differensial); repertuar panjaralar.

Bu metodlar sinaluvchining verbal imkoniyatlariga tayanadi.

3) Proyektiv texnikalar

Yetarlicha tugallanmagan stimullar asosida sinaluvchining ichki dunyosi, tasavvur va hayol jarayonlarini ochib berishga qaratilgan metodlar.

4) Dialogik (interaktiv) texnikalar

Suhbat, intervyu, diagnostik o‘yinlar kabi metodlar bo‘lib, psixolog va sinaluvchi o‘rtasidagi bevosita muloqotga asoslanadi.

Psixodiagnostik metodlar psixolog faoliyatining asosiy vositasi bo‘lib, ularning mohiyati shaxs psixikasini ilmiy, haqqoniy va etik asosda o‘rganishdan iborat. Metodlardan to‘g‘ri va mas’uliyat bilan foydalanish psixologik tashxisning ishonchligini, shuningdek, tekshiriluvchi shaxs huquqlarining himoyalanganligini ta’minlaydi.

2. Psixodiagnostikaning asosiy metodlari

Psixodiagnostik tadqiqotlar shaxsning psixologik holatini, shaxsiy xususiyatlarini, motivatsiyasini va munosabatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy asoslangan metodlar majmuidir. Ushbu metodlarni qo‘llash jarayoni potopsixologik diagnostik vaziyatga bog‘liq bo‘lib, muloqotni ekspertiza tamoyillari bo‘yicha tashkil etishni talab qiladi.

Psixodiagnostik metodlar verbal va noverbal shakllarga bo‘linadi:

Verbal metodlar — intervyu, suhbat, test-so‘rovnomalar kabi muloqot orqali amalga oshiriladi.

Noverbal metodlar — o‘yin, perceptiv va motor faoliyatga asoslangan texnikalar bo‘lib, ayniqsa bolalar psixodiagnostikasida keng qo‘llaniladi.

Psixodiagnostning tadqiqot jarayoniga jalb qilinish darajasi

Psixodiagnostik metodlarni tanlashda uning tadqiqot jarayoniga jalb qilinish darajasi muhim mezon hisoblanadi.

Minimal jalb etiladigan metodlar: Apparaturaviy metodlar va obyektiv testlar psixodiagnostning tadqiqot natijalariga ta’siri minimal bo‘ladi. Masalan, ko‘plab standart so‘rovnomalar va shkalaviy texnikalar bu turga kiradi. Bunda psixologning shaxsiy xususiyatlari metodika yaratilishida ishtirok etadi, ammo tadqiqot jarayoni va natijalarni qayd etish odatda laborant yoki kompyuter dasturi yordamida amalga oshiriladi.

Maksimal jalb etiladigan metodlar: Diagnostik texnikalar, suhbat, intervyu va diagnostik o‘yinlar psixodiagnostning tajribasi, professional ko‘nikmalari va muloqot xususiyatlarining natijalarga maksimal ta‘sir ko‘rsatishini talab qiladi. Masalan, patopsixologik eksperimentlarda psixodiagnost signal vazifasini bajaradi: u sinaluvchiga uning javoblari asosida muhim diagnostik xulosa chiqarilishini tushuntiradi va ushbu motivatsiya darajasi tadqiqot natijasini belgilaydi.

Psixologik konsultatsiya jarayonida esa, psixodiagnostning suhbat va reaksiyalari diagnostik xulosaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Optimal muloqot yaratish orqali psixolog kerakli ma‘lumotlarni to‘plashi mumkin, aks holda bu jarayon natijalarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi.

Psixodiagnostik metodlarning o‘rta darajali jalb qilinishi

Boshqa metodlar obyektiv testlar va maksimal jalb etiladigan dialogik metodlar orasidagi oraliqni egallaydi. Ular psixologning o‘rta darajadagi ta‘siri bilan ishlaydi:

O‘rtacha jalb etiladigan metodlar: repertuar panjaralar va proyektiv texnikalar. Bu metodlar orqali kognitiv tuzilma, shaxsiy xususiyatlar va motivatsion jarayonlar aniqlanadi.

Minimal jalb etiladigan metodlar: qobiliyat va psixik funksiyalar obyektiv testlar va test-so‘rovnomalar orqali o‘rganiladi.

O‘rta darajada jalb etiladigan metodlar: shaxs xususiyatlari test-so‘rovnomalar bilan aniqlanadi.

Maksimal jalb etiladigan metodlar: motivatsiya, munosabatlar, o‘zaro munosabatlar va muloqot xususiyatlarini aniqlashda proyektiv va dialogik metodlar qo‘llaniladi.

Ikki o‘lchovli klassifikatsiya

Psixodiagnostik metodlarni ikki o‘lchov bo‘yicha tasniflash mumkin:

Psixodiagnostning jalb etilishi va tadqiqot natijalariga ta‘siri

Instrumentning predmetga yo‘naltirilganligi

Ushbu yondashuv yordamida metodlar jadvalga joylashtiriladi va ularning qayerda yetishmayotgani aniqlanadi. Masalan, qobiliyatlarni aniqlash uchun dialogik metodlar yetarli emas, chunki qobiliyatlar samarasi psixodiagnost bilan muloqotga bog‘liq.

Psixodiagnostik metodlar tanlanishi va qo‘llanilishi psixologning kasbiy malakasi, muloqot ko‘nikmalari, metodik tayyorgarligi va metodlarning ilmiy asoslanishiga bog‘liq. Metodlarni ikki o‘lchovli klassifikatsiya orqali tartiblash psixodiagnostik ishlarni tizimli va samarali tashkil etishga yordam beradi, shuningdek, metodlar yetishmayotgan sohalarni aniqlash imkonini beradi. Shu yo‘l bilan psixologlar o‘z faoliyatini rivojlantirish, yangi metodlarni ishlab chiqish va mavjud metodlarni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishonova Z.T., va boshqalar. Psixodiagnostika : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : 2008.
2. Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Abdiyeva S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : Tafakkur bo‘stoni, 2011.
3. Toshimov R.Y., G‘oziyev E.G‘. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : TDPU, 2004.
4. Rasulov A. Psixodiagnostika : o‘quv-uslubiy qo‘llanma. — Toshkent, 2010.
5. Акимова М.К., Гуревич К.М. Психологическая диагностика. — Москва : ИЦ «ВЛАДОС», 2005.